ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Kaltaminor madanihyatining o‘rganilish tarixi .

SH.A.Tojiyev

Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Kaltaminor madaniyating o‘rganilish tarixi yoritilgan.

Ayniqsa , S.P.Tolstovning olib borgan ishlari tahsinga sazovor , shuningdek yangi olib borilgan tadqiqotlarga ham to‘xtalib o‘tilgan. Ayniqsa , madaniyatning genizis masalasi juda bahsli bo‘lib qolmoqda .

Kalit so‘zlari: Kaltaminor , Qizilqum , Oqchadaryo , Darbozaqir , Jonbos-4 , Aykagitma .

Аннотация: В статье рассматривается история изучения культуры Калтаминор. В частности, заслуживает похвалы работа С.П. Толстова, а также обсуждаются новые исследования. В частности, вопрос генезиса культуры остается весьма спорным.

.

Ключевые слова : Калтаминор, Кызылкум, Акчадарья, Дарбозакыр, Джонбос-4, Айкагитма.

Abstract. This article covers the history of the study of the Kaltaminor culture.

In particular, the work of S.P. Tolstov is commendable, and new research is also discussed. In particular, the issue of the genesis of culture remains very controversial.

Keywords: Kaltaminor, Kyzylkum, Aqchadaryo, Darbozakyr, Jonbos-4, Aykagitma.

O’rta Osiyoda Kaltaminor madaniyati nomi bilan mashhur bo’lgan yodgorliklar asosan o’lkaning g’arbiy va shimoli-g’arbiy tomonlarida keng tarqalgan. Shu bilan birga uning chegarasi Ural daryosi va Kaspiy dengizi bilan ham tutashgan. Janubda Qoraqum va Shimoliy Qizilqum etaklarida, sharqda esa Orol dengizi shimoliy-sharqiy va janubiy tomonlarida quyi Sirdaryoga borib taqaladi.

Kaltaminor madaniyatiga asos solgan kishilar qadimda ko’l va daryolar bo’ylarida, qamishzorlar yonida yashagan. Joylarning tabiiy sharoitiga ko’ra, Kaltaminor madaniyatini yaratgan kishilar asosan yovvoyi hayvonlarni ov qilib, ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan. Mevali daraxtlar ko’p bo’lgani uchun ham ularning ho’jalik hayotlarida termachilik ham katta o’rin egallagan. Kaltaminor qabilalari ho’jaligida qisman chorvachilik ho’jaligi ham bo’lgan.

Kaltaminor madaniyatini arxeolog S.P.Tolstov o’rgangan.

Kaltaminor madaniyati jamoalarining makonlari ilk bor Amudaryo-ning Oqchadaryo o’zanidan chiqqan qadimgi Kaltaminor kanali etaklaridan topilgani uchun ularga shu nom berilgan. Oqchadaryo havzasidagi bir necha manzilda madaniy qatlamlar saqlangan bo’lib, ulardan biri Jonbos – 4 makonida chaqmoqtoshdan yasalgan minglab mehnat qurollari, sopol parchalari, hayvon suyaklari va baliqlarning suyaklari topilgan.Arxeologlar Jonbos-4 manzilgohini o’rganish jarayonida yarim yerto’la shaklidagi kulba (chaylaga) duch keladilar. Kulbaning markaziy qismida katta o’choq qoldig’i topiladi. Bu o’choq atrofida yuzga yaqin mayda o’choq qoldiqlari joylashgan[1].

[1] Толстоа С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1962. -С. 15.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Arxeolog S.P. Tolstov katta o'choqni muqaqqas olov saqlanadigan otashqada, uning atrofidagi o'choqlar esa oilalarning o'choqlari bo'lgan degan fikrni aytadi. Jonbos-4 makonida topilgan kulbaning maydoni 300 m² bo'lib, bu yerda 120-125 kishi istiqomat qilgan. U katta urug' jamoasining makoni bo'lgan.

Kaltaminor madaniyati jamoalari sopol ishlab chiqarishga usta bo'lgan. Sopol yasashda ham kulolchilik charxidan foydalanish o'zlashtirilmagan bo'lsa-da, qurollar sopol buyumlar yasashning ibtidoiy usullarini ko'nikma sifatida egallaganlar. Kaltaminorliklar idishlar yasash uchun tayyorlangan loyga yantoq va qamishning toza kulidan qo'shishgan. Sopol qozon loylariga esa maydalangan tosh qo'shishgan. Bu qo'shilmalar sopol idishlarning mustahkam chiqishini, olovga tushganda o'zida issiqlikni uzoq vaqt saqlab qolishini ta'minlagan. Sopol buyumlarning sirtiga odatda naqsh berilgan. Naqshlar chizma uslubda ishlangan. Ular turli geometrik shakllarda o'z aksini topgan.

Asosan naqshlar uchi uchli yog'och yoki suyak pichoq yordamida ilon izi, romb, uchburchak, egri chiziq va boshqa shakllar chizilgan. Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichiga kelganda ba'zi sopollarning gardishiga rangli gul-naqshlar chizilgan.

Kaltaminor madaniyatining dastlabki bosqichida sopol buyumlar aksariyat hollarda tuxumsimon shaklda bo'lgan. Ammo so'nggi bosqich (O'zboy) da tuxumsimon, tosh dumaloq idishlar o'rnini tuvaksimon, osti tekis idishlar egallaydi. Agar dastlab idishlar mato xalta qoliplarida tayyorlangan bo'lsa, endi loy lentalarda qo'lda yasalgan. Idishlarda jo'mraklar paydo bo'lgan. Ular bir qavatli humdonlarda pishirilgan[2].

Kaltaminor madaniyati urug' jamoalari tabiat kuchlari oldida ojiz edi. Ular suv orqasidan, ov orqasidan ergashib yurganlar. Ularning kulbalari qurib borayotgan daryo yoqalarida, ko'l bo'ylarida qumlar ustida qad ko'targan. Daryo va ko'l suvlarining o'zgarishi bilan Kaltaminorliklar jamoasi ham o'z manzilgohlarini o'zgartirganlar.

Kaltaminor madaniyati taraqqyotida 3 bosqich kuzatiladi. Ilk (daryo-soy) bosqichi miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarga to'g'ri keladi. Uning o'rta bosqichi (Jonbos – 4) miloddan avvalgi V-VI ming yilliklarga mansub. Nihoyat, so'nggi bosqich (O'zboy) miloddan avvalgi V-III ming yilliklarni qamrab oladi. Bu bosqichlarning madaniy qiyofasi ularga xos ishlab chiqarish, mehnat qurollari hamda sopol buyumlarda o'z aksini topgan.

O'zbekiston mustaqillikni ilk yillarida ajdodlarimizni tosh davri makon va topilmajoylarini o'rganish ishlari keng ko'lamda boshlab yuborildi shulardan biri Kaltaminor madaniyatining yangi yodgorliklari topib o'rganish. Ana shunday yodgorliklardan biri Aykagitma makonidir. U 1995-yili O'zbekiston-Polsha xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan dala qidiruv ishlari natijasida yangi madaniy qatlamlari yaxshi saqlanib qolgan arxeologik yodgorlik topildi va tadqiqot ishlari yetti yil davom etdi. 2002-yili Kaltaminor madaniyatini o'rganish uchun O'zbekiston-Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Bu ekspeditsiyaning tadqiqot doirasida Zarafshon qadimiy quyi oqimlari, yaqin ko'l va daryolar, vohaning cho'l atrof-muhit zonalarida mahalliylashgan Kaltaminor yodgorliklar guruhi o'rganildi. Bu vohalardagi tadqiqotlar tufayli ko'plab neolit yodgorliklari, jumladan, Darbozaqir 1 va 2 makonlari aniqlandi[3]. . Shunday qilib, Kaltaminor madaniyati jamoalari O'rta Osiyo va Janubiy-G'arbiy Qozog'iston hududlarida tarqalib yashaganliklari ilmiy isbotlandi. Kaltaminorliklar egallagan hudud va tarixiy davrni hisobga olib, arxeologiya fanida Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari (Keltaminarskaya

[2] Итина М.А. Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя //ТХААЭЭ. Т. 2. М.: 1958. -С. 37

[3] Исламов У.И. Кельтеминарская культура на Махандарье. // НРС. Ташкент. 1961.-С. 38.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

istoriko-kulturnaya obshnost) tushunchasi kiritilgan. Ushbu madaniyatning ilk bosqichlari tag qismi qabariq, naqshlarga boy, rangli va chaplama bo‘lgan sopol idishlar, yerto‘la tipidagi kichik uylar va plastinali industriyasi bilan xarakterlanadi[4].1957-yilda A.V.Vinogradov Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini xronologik jihatdan ilk va so‘nggi davrlarga ajratadi. Yana ushbu muallif Zarafshon daryosining Qizilqum oralab oqqan Daryolisoy o‘zanining Ayakagitmahududida madaniy qatlami yaxshi saqlangan boshqa bir yodgorlikni topib, qazishmalar o‘tkazdi. A.V.Vinogradov Kaltaminor madaniyati yodgorliklariga oid yangi arxeologik komplekslar tahlili asosida uning Daryolisoy bosqichi mavjud ekanligini ilmiy asosladi va uning davriy sanasi mil.av. V mingyillikka tegishli degan xulosaga keldi[3] . A.V.Vinogradov Turkmanistonhududidan o‘tgan asrning 70-yillarida topilgan va Amudaryo quyi oqimining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Tumek-Kichijik qabristonini Kaltaminor madaniyati bilan bog‘laydi. Yodgorlik neolit davri uchun noyob va muhim dafn inshootidir. Qabrlar yakka holda bo‘lib, tubi bir yorma qilingan, marhumlar chalqanchasiga yotqizilgan, qo‘llari yon tomonda, ba’zi jasadlarda oxra qoldiqlari qayd etilgan. Marhum bilan birga kam bo‘lsa-da tosh qurollar va sopol buyumlar qo‘yilgan, Ular Kaltaminor yodgorliklari kompleksi bilan o‘xshashdir[4] . Bu yodgorlikda qabrlar tuzilishi o‘ra tipidagi go‘r bilan yorma go‘rni eslatadigan konstruksiyani beradi.O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab Kaltaminor madaniyatiga oid Ayakagitma yodgorligida turli fan sohalari (paleobotanika, arxeozoologiya, polinologiya, mikroiqlim, geologiya, sedimentologiya, mikromorfologiya, topografiya, GIS) bo‘yicha 40 ga yaqin mutahassislar izlanishlar olib borishdi. Ayakagitma makonini ham Kaltaminorning klassik yodgorliklari safiga kiritish mumkin. Ushbu makon nafaqat hayvonlarni xonakilashtirish, balki Kaltaminor madaniyatining sanasini 700 ming yilga qadimiylashtirdi.Kaltaminor madaniyati Markaziy Osiyo arxeologiyasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Mazkur madaniyatning dastlabki o‘rganilgan yodgorliklaridan biriJonbosqal’a-4 makonidir. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov tomonidan 1939 yil Kaltaminor madaniyati tushunchasi fanga kiritilgan[5] va tabiiyki, bu hududlardan topilgan boshqa barcha neolit davri yodgorliklari Jonbosqal’a-4 materiallari bilan taqqoslanib qiyosiy o‘rganilgan. O‘rta Osiyoning boshqa neolit davri madaniyatlaridan farq qiladigan Kaltaminor madaniyati yodgorliklari Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining uzoq yillar davomidagi tadqiqot obyekti bo’lgan.Ushbu tadqiqotlar natijasida shu davrga oid Uzboy bo‘ylari, Sariqamish, Xorazm hududi, Qizilqum va Zarafshonning quyi oqimida ko‘plab makonlar ochilgan va o‘rganilgan. Bu izlanishlar tufayli Kaltaminor madaniyati jamoalari O‘rta Osiyo va Janubi–G‘arbiy Qozog‘iston hududlarida tarqalib yashaganliklari ilmiy isbotlangan va kaltaminorliklar egallaganhudud hamda tarixiy davr arxeologiyada Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari tushunchasi bilan fanga kiritilgan.Kaltaminor madaniyatining o‘rganilishida S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov, M.A.Itina, O’.I.Islomov, K.Shimchak, F.Brunet va boshqalarning xizmatlari kattadir.Kaltaminor madaniyatiga oid yangi yodgorliklar topib o‘rganilmoqda. Ana shunday yodgorliklardan biri Ayakagitma makonidir. U 1995-yili O‘zbekiston-Polsha [6] xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topildi va tadqiqot ishlari o‘n yil davom etdi. Tadqiqot natijalari Kaltaminor madaniyatiga oid yangi ma’lumotlarni berdi. So‘ngra 2006-yilda Kaltaminor

[4] Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. М., 1981. -С.114 .
[5] Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры. // СЭ. No 1. М., 1957.-С. 44
[6] Khudzhanazarov M., Szymczak K., BrunetF., Some Neolithic and Early Bronze Age Findsfrom Makhandaria Region // История Узбекистана в археологических и писменних истонниках.Ташкент, 2005. -P. 14

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

madaniyatini o‘rganish uchun O‘zbekiston-Fransiya [7] xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Bu ekspeditsiyaning tadqiqot doirasida Zarafshon daryosining qadimiy quyi oqimi, unga yaqin ko‘l a daryolar, vohaning cho‘l zonalarida mahalliylashgan Kaltaminor yodgorliklari guruhi o‘rganildi [8].Hozirda Kaltaminor madaniyati uch bosqichga bo‘linadi. Uning ilk bosqichi Daryolisoy bo‘lsa, Jonbosqal’a-4 gullagan davri, Saksovul yoki Qamishli esa yakuniy bosqichidir. Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar hozirda butun Qizilqum (Amudaryo va Zarafshonning eski o‘zanlarini ham qamrab oladi), Amudaryoning o‘rta va quyi oqimi chap sohillarida, Uzboyda, Ustyurtda va Qozog‘istonning qator rayonlarida keng tarqalgan. Kaspiybo‘yining ayrim komplekslarini ham Kaltaminor madaniyatiga kiritish mumkin[14].Tabiiyki, bunday katta hududlarda madaniyatning to‘liq bir xilligi kuzatilmaydi. Katta o‘xshashlikni tosh buyumlarda kuzatish mumkin, garchi ularda ham ayrim o‘ziga xos mahalliy tafovutlar kuzatilsa-da. Yanada yorqinroq ular sopol idishlarda, ularning shakllarida, naqshlarida va taqinchoqlarda kuzatiladi.Materiallarni qiyosiy tahlillari bu ulkan hududda topilmalari bir tomondan barqaror umumiy belgilarga, ikkinchi tomondan, madaniy xususiyatlarning barqaror belgilariga ega guruhlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu guruhlar —mahalliy arxeologik madaniyatlar, aftidan, madaniyati, xo‘jaligi, hayot tarzi jihatdan yaqin yoki qardosh qabilalarning arxeologik jihatdan rayonlashuvining aks etishi hisoblanadi. Hozirda Kaltaminor (yoki Oqchadaryo), Quyi Zarafshon va Lavlakon madaniy guruhlari ajratilgan.Adabiyotlarda Kaltaminor madaniyati alohida etnik va til guruhiga oid jamoalardan tarkib topganligi borasida ham fikrlar mavjud. A. V. Vinogradov Qizilqumning Janubi-G‘arbiyhududlarida keng ko‘lamda ish olib borib, Kaltaminor madaniyatiga oid yangi yodgorliklarni topib o‘rgandi. Kaltaminor madaniyatini mahalliy variantlarga ajratish, ularni xronologik jihatdan davrlashtirish muammolari ham tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini uzoq yillar o‘rgangan A. V.Vinogradov uni uchtahududiy variantlarga (Oqchadaryo, Uzboy va G‘arbiy Qozog‘iston) ajratadi. U Qizilqum guruhiga kiruvchi yodgorliklarni ham alohida variantga ajratilishi mumkinligini ta’kidlagan[16] . Keyinchalik quyi Zarafshon varianti ham ajratilgan bo‘lib, asosli ravishda Tuzkon guruhi nomini olgan.Kaltaminorning ichidagi hududiy tafovutlardan tashqari, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonda Kaltaminorga oid deb topilgan yodgorliklarda sinchkov tadqiqotlar o‘tkazilganidan keyingina, ularni ushbu madaniyatga bog‘lash talab qilinadi.Biroq Kaltaminor madaniyatining genezisi masalasi hozirgacha jumboqligicha qolmoqda. Bu haqda turli xil fikrlar ilgari surilgan. Agar Kaltaminorning eng qadimgi belgilari mahalliy kelib chiqish ildizlariga ega bo‘lsa, u Zarafshon vohasida shakllandimi, ayniqsa, er. av. VII ming yilliklarda? Bundan tashqari, er. av. IV ming yilliklarda Kaltaminor tipidagi kamon o‘qlari O‘zbekistonda qayerdan paydo bo‘lganligi masalasi muammolidir. Quyidabiz Kaltaminor madaniyatining klassik yodgorligi Ayakagitma makoni quyi qatlamlari tosh industriyasini hamda Samarqand so‘nggi paleolit madaniyati komplekslarini texnologik va tipologik tadqiq qilish asosida qo‘lga kiritilgan ayrim dalillarni keltirib o‘tmoqchimiz.Hozirda Kaltaminor madaniyatining kelib chiqishi masalasida unga chaqmoqtoshli industriyali baliqchi-ovchi jamoalar asos solgan, degan fikrlar ustuvor bo‘lmoqda . Ta’kidlash joizki, Kaltaminor madaniyati mahalliy mezolit davri jamoalari

[7] Brunet F.Pour une nouvelle étude de la culture néolithique de Kelteminar, Ouzbékistan// Paleorient. No 31/2. Paris. 2005. -P. 87-106.

[8] ДжўрақуловМ.Д., ХолматовН.Ў., ХужаназаровМ. 5-боб. Неолит-янги тош даври//Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд. Тошкент. 2014. -Б.45; -Б. 119

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

asosida shakllangan va rivojlangan. Ammo O‘rta Osiyoda mezolit davri hali yetarli darajada o‘rganilmaganligi uchun bu masala o‘zining to‘liq yechimini topgani yo‘q

Foydalanilgan adabiyotlar bazasi:

1. Толстоа С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1962. -С. 15.

2. Итина М.А. Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя //ТХААЭЭ. Т. 2. М.: 1958. -С. 37

3. Исламов У.И. Кельтеминарская культура на Махандарье. // НРС. Ташкент. 1961.-С. 38.

4 .Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. М., 1981. -С.114 .

5 .Виноградов А.В. К вопросу о южных связах кельтеминарской культуры. // СЭ. No 1. М., 1957.-С. 44 6.Khudzhanazarov M., Szymczak K., BrunetF., Some Neolithic and Early Bronze Age Findsfrom Makhandaria Region // История Узбекистана в археологических и писменних истонниках.Ташкент, 2005. -P. 14

7 .F.Pour une nouvelle étude de la culture néolithique de Kelteminar, Ouzbékistan// Paleorient. No 31/2. Paris. 2005. -P. 87-106.

8.ДжўракуловМ.Д., ХолматовН.Ў., ХужаназаровМ. 5-боб. Неолит-янги тош даври//Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд. Тошкент. 2014. -Б.45; -Б. 119